



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2025 yil “25”sentabr

02-28/22665-son

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni
saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent
shahri sog‘liqni saqlash boshqarmalari**

**Vazirlik tasarrufidagi tibbiyot oliy ta’lim
muassasalari va ilmiy tashkilotlar**

Ma’lumot uchun:

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Tibbiyot bosh boshqarmasiga**

**“Allergik kasalliklar davosining zamonaviy tendensiyalari” V xalqaro
kongressini o‘tkazish to‘g‘risida**

KO‘RSATMA

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy tashkiliy tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. 2025-yilning 17-18 noyabr kunlari Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan rejalashtirilgan Toshkent shahri «International hotel Tashkent» mehmonxonasida (Amir Temur ko‘chasi 107 A) “Allergik kasalliklar davosining zamonaviy tendensiyalari” mavzusidagi xalqaro mutaxassislar ishtirokidagi V xalqaro kongressi o‘tkazilsin.

2. Kongress ishtirokchilari o‘rinlari taqsimoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy -amaliy tibbiyot markazi direktori (I.Razikova), Fan-ta’lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i (O‘.Ismailov), Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (A.Alijanov) kongressga puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy -amaliy tibbiyot markazi direktori I.Razikovaga:

sertifikatlarni tayyorlash va kongress ishtirokchilarini oʻrnatilgan tartibda sertifikatlar bilan taʼminlash amalga oshirilsin;

kongressni oʻtkazish bilan bogʻliq boʻlgan barcha sarf-xarajatlar homiylar va budjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan qoplanishi maʼlumot uchun qabul qilinsin;

tadbir tashkilotchilari Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 205-son qarori bilan tasdiqlangan hisobotni **3 kun** muddat ichida vazirlikning Fan-taʼlim va innovatsiyalar boshqarmasiga taqdim etilishi taʼminlansin.

5. Tadbir boʻyicha ommaviy axborot vositalari orqali yoritish Matbuot xizmati rahbari F. Sanayevga yuklansin.

6. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sogʻliqni saqlash boshqarmalari, tibbiyot oliy oʻquv yurtlari rektorlari, ilmiy-tashkilotlar direktorlari ilovaga muvofiq kongressda qatnashish uchun oʻz vakillarining ishtirokini taʼminlasin.

7. Ushbu topshiriq xat ijrosining nazoratini Fan-taʼlim va innovatsiyalar boshqarmasi boshligʻi Oʻ. Ismailov zimmasiga yuklansin.

Vazirning birinchi
oʻrinbosari



A. Boboyev

Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida « ALLERGIK KASALLIKLAR DAVOSINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI » mavzusidagi xalqaro mutaxassislar ishtirokidagi V-xalqaro tibbiyot kongressi qatnashchilari o‘rinlar taqsimoti

№	Muassasalar	O‘rinlar
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi	5
2	Andijon viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	7
3	Buxoro viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	5
4	Jizzax viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	5
5	Qashqadaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi va NGMK	5
6	Navoiy viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	10
7	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	5
8	Samarqand viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	5
9	Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	5
10	Sirdaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	5
11	Xorazm viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	7
12	Farg‘ona viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	5
13	Toshkent viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	10
14	Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi	2
15	Respublika Ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	48
16	Tibbiyot hodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	5
17	Andijon davlat tibbiyot instituti	5
18	Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti	4
19	Samarqand davlat tibbiyot instituti	5
20	Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	2
21	MDX mamlakatlaridan qatnashchilar	3
22	Milliy gvardiya	2
Jami:		176